

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINI UMUMTA’LIM MAKTABLARIGA TADBIQ ETISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Akramjon Matkarimov

„Oila va gender“ ilmiy tadqiqot instituti doktoranti
akramjon14@list.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18960915>

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarini umumta’lim maktablariga tadbiiq etishning ijtimoiy-pedagogik zarurati yoritilgan. PISA, TIMSS, PIRLS va TALIS dasturlari asosida ta’lim sifatini baholash, o’quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish hamda milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Ta’lim samaradorligini oshirish omillari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, ta’lim sifati, kompetensiya, pedagogik monitoring, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В статье раскрывается социально-педагогическая необходимость внедрения международных оценочных исследований в систему общего среднего образования. Рассматриваются программы PISA, TIMSS, PIRLS и TALIS как инструменты повышения качества образования, формирования ключевых компетенций учащихся и модернизации национальной образовательной системы. Обоснованы теоретические и практические механизмы совершенствования оценивания и педагогического мониторинга.

Ключевые слова: международная оценка, качество образования, компетенции, педагогический мониторинг, инновации.

Abstract: This article examines the socio-pedagogical necessity of implementing international assessment studies in general secondary education. Programs such as PISA, TIMSS, PIRLS, and TALIS are analyzed as tools for improving educational quality, developing key competencies, and modernizing national education systems. Theoretical foundations and practical mechanisms for effective assessment and pedagogical monitoring are substantiated.

Keywords: international assessment, education quality, competencies, pedagogical monitoring, innovation.

Jahonda umumiy o’rta ta’lim maktablarida ta’lim mazmunini Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD)ning xalqaro baholash tadqiqotlari (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS), Trends in International Mathematics and Science Study – TIMSS), The Programme for International Student Assessment – PISA), The Teaching and Learning International Survey – TALIS) talablariga moslashtirish orqali o’quvchilarni intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarishga e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sub’ektlarining salohiyatlarini birlashtirish, umumiy o’rta ta’limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qaror toptirish, o’quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatining ijtimoiy-pedagogik omillarini tadqiq etish orqali ta’lim samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta’lim tizimiga tadbiiq etishning ijtimoiy-pedagogik asoslariga doir fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta’lim tizimiga tadbiiq etish va bu orqali o’quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo’lgan hayotiy-amaliy ko’nikmalarni rivojlantirish, jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga tayyorlash ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning asosiy yo’nalishi sifatida qayd qilinmoqda. Buning uchun milliy ta’lim tizimi mazmunini tashkil etuvchi: o’quv dasturlari, darsliklar, o’qitish metodikasi va ta’lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo’yicha xalqaro tajribalar o’rganilmoqda va bosqichma-bosqich tadbiiq etilmoqda. Boshqa tomondan o’quvchilarning ta’lim olishda ijtimoiy tenglik tamoyiliga muvofiq sifatli ta’lim olishi va bu orqali mustaqil hayotga tayyorgarlik ko’rishining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, pedagogik omillarini tahlil qilish tadqiqotlarning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’limga oid islohotlar ko’proq tizimning innovatsion komponentlarini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirishning texnologik modellarini yaratish va sohaga rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalarini tatbiiq etish yo’nalishlarida ko’zga tashlanmoqda.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Muntazam ravishda o‘tkazilib boriladigan xalqaro baholash tadqiqotlari milliy ta’lim tizimini innovatsion g‘oyalar, yondashuvlar va ilg‘or tajribalar bilan rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Xalqaro pedagogik amaliyotda milliy ta’lim tizimini uzluksiz rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik omillarni hisobga olish tajribasi keng yo‘lga qo‘yilgan. Natijada o‘quvchilarning ta’lim olishdagi teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlilik bilan bog‘liq ijtimoiy masalalar hal qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasini ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS tadqiqotlarida 2019 yildan boshlab ishtirok etishi milliy ta’lim tizimini xalqaro darajada baholash, boshqa davlatlar bilan taqqoslash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash tadqiqotlari reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish vazifasi ustuvor etib belgilab berilgan [1]¹⁹. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yildan buyon xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi hamda milliy ta’lim tizimiga tadbiriq etishni ilmiy-nazariy, metodologik jihatdan o‘rganish ustuvor vazifalardan biri hisolanadi. Xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta’lim tizimiga tadbiriq etishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, uning ilmiy-nazariy tadqiqi, amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi „O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“gi PF-5712-sonli[2], 2020 yil 29 oktyabrdagi „Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“ PF-6097-son Farmoni [3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 dekabrda «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 997-son Qarori [4; 176] va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi globalizatsiya sharoitida fanlararo yondashuv ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Fanlarning turli sohalari o‘rtasidagi integratsiya bilimlarni keng qamrovda tushunish, tahliliy va tizimli tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, didaktik muhitda sun‘iy intellekt va neyrotarmoqlar kabi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ta’limning individualizatsiyasiga hamda shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonlarining optimallashtirishiga olib keladi²⁰.

Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish, avvalo, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining indikatorlari asosida ta’lim natijalarini tahlil qilishni talab etadi. Ushbu indikatorlar o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalari, funksional savodxonligi va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan bo‘lib, milliy ta’lim standartlarini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Qiyosiy pedagogika nuqtai nazaridan olib qaralganda, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlari sifat nazorati, o‘qitishning differensiallashuvi va ta’lim jarayonining individualashtirilishi bilan ajralib turadi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik innovatsiyalar, STEAM ta’limi va interfaol texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Milliy baholash tizimini takomillashtirishda normativ-huquqiy asos va pedagogik monitoring tizimining moslashuvchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Formativ baholash, summativ monitoring va diagnostik tahlil usullari orqali ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida real va prognozli natijalarni baholash mumkin. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajribadan foydalangan holda milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratish hamda zamonaviy baholash tizimlarini implementatsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta’lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari ta’limdagi yutuqlarini xalqaro tadqiqotlar hamda milliy tadqiqotlar asosida baholash orqali quyidagilarga erishish mumkin: milliy ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o‘z vaqtida axborot olish; ta’lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta’sirini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi; ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi; o‘quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonligining qay darajada shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosda taqqoslash; ta’lim muassasalaridagi joriy etilgan o‘qitish usullarini boshqa mamlakatlardagi usullardan farqli jihatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish; o‘quvchilarning savodxonlikni rivojlantirishga oid darslar maktablarda

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 8 dekabrda 997-son Qarori / «Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi», 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son.

²⁰ Turdiqulov E.O., Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – T.: 2009. -176 b.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

qanday tashkil etilganligi haqida ma’lumot olish; ota-onalar tomonidan o‘quvchilarning bilimi va savodxonligini yaxshilashda qo‘shilayotgan xissalari salmog‘ini bilish; o‘quvchilarni fanlararo uyg‘unlik asosida baholash, dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta’lim jarayonlarini chuqur tahlil qilish; ta’lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetensiyaviy yondoshuvlar, ya’ni o‘quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish; shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo‘ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma’lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu islohotlar orqali o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etishga yo‘naltiriladi. Shunday ekan, milliy ta’lim tizimidan farqli bo‘lganligi sababli mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish uchun umumta’lim muassasalari jamoalaridan yuksak mas’uliyat, o‘quvchilardan etarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik, shuningdek o‘qituvchilar zamonaviy innovatsion o‘qitish usullarini o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 8 dekabrda 997-son Qarori / «Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi», 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019 yil 29 aprelda PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi „Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“ PF-6097-son Farmoni, //O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y., 06/20/6097/1431-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 8 dekabrda 997-son Qarori / «Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi», 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son.
5. Turdiqulov E.O., Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – T.: 2009. -176 b.